

**Shodiyeva Asila**

**FarDU, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini o‘qituvchisi**

**Abdusattorova Zilola**

**FarDU, filologiya fakulteti o‘zga tilli guruhlarda rus tili yo‘nalishi**

**22.101-guruh talabasi**

---

## **JAHON ADABIYOTI VOSITALARIDA AXLOQIY-ESTETIK TARBIYA USULLARINING ADABIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, adabiyotshunoslikning eng asosi bo‘g‘imi hisoblangan axloqiy-estetik tarbiyaning jahon adabiyoti vositalaridagi usullari va uning adabiy ta‘lim tizimlaridagi o‘rni, shuningdek, muhim jihatlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tarbiya, axloqiy-estetik, adabiy ta‘lim, ta‘lim tizimi, jahon adabiyoti, jahon adabiy tizimi, axloq, estetika.

---

Bugun mamlakatimizda Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori asosida ta‘lim sohasini tubdan yaxshilash, ta‘lim sifatini oshirish ta‘lim-tarbiya, intellektual salohiyatli avlodni shakllantirish va har tomonlama barkamollashtirish masalalariga ustuvor vazifalar sifatida jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Amalga oshirilayotgan ta‘lim islohotlarida yagona maqsad – barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalash va tayyorlash ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu maqsadni to‘liq amalga oshirish ta‘lim tizimini takomillashtirish, o‘quv jarayonidagi sifat o‘zgarishlari, yuqori samaradorlikka erishishdan iborat.

Innovatsion faoliyat – bu an‘anaviy standartlarning yangi ijtimoiy talablarga mos kelmasligi yoki yangi shakllangan amaliyot normasining belgilangan norma bilan ziddiyatlari natijasida yuzaga kelgan bir qator muammolarni hal qilishga qaratilgan faoliyat. U shaxsning, xususan, pedagogning innovatsion jarayonni tashkil etishga tashkiliy-texnologik, uslubiy va ijodiy tayyorgarligi hisobiga tashkil etiladi. Pedagogik innovatsiyalarning pedagogik faoliyatga innovatsiyalarni kiritishiga imkon berish orqali ta‘lim tizimi yoki jarayoni muntazam ravishda rivojlanadi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani safarbar etuvchi, olg‘a intilish, ijodkorlikni rag‘batlantirish, ta‘lim-tarbiya jarayoni sifatini kafolatlovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Binobarin, har bir o‘qituvchi yangilik mohiyatini to‘liq anglab, uni o‘z faoliyatiga izchil tatbiq etsa, ta‘lim jarayoni ham sifat, ham samaradorlik jihatidan yaxshilanadi. Bu, o‘z navbatida, ta‘lim tizimining rivojlanishini ta‘minlaydi. Bugungi kunda o‘qituvchi yangiliklardan yaxshi xabardor bo‘lishi, ularni o‘quv jarayoniga qo‘llashda kasbiy mahoratga ega bo‘lishi zarur.

Ma‘lumki, adabiy tizimda pedagogik qarashlarni kengaytirish eng samarali usullardan biridir. Avvalo, adabiy ta‘lim tizimi va adabiyot nima ekanligi haqida so‘z boshlaylik.

Insonning ma‘naviy kamolotida, ma‘naviy yuksalishida adabiyotning o‘ta muhim rol o‘ynashi aksioma, ya‘ni isbot talab etmaydigan haqiqatdir.

Xususan, u jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifa, yetuk avlodni voyaga yetkazishda beqiyos xizmat qila olishiga shubha yo‘q. Biroq, bu imkoniyatni to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun ma‘lum shartlar mavjud. Bu shartlarning birinchisi va eng asosiysi adabiy ta‘limdir.

Mustaqillik yillarida adabiy ta'lim sohasida ko'plab o'zgarishlar ro'y berdi: yangi davlat ta'lim standartlari qabul qilindi, shu asosda o'quv rejalari ishlab chiqildi, ularga mos darslik va o'quv qo'llanmalar nashr etildi. Albatta, bularning barchasi adabiy ta'limni yuksaltirishga qaratilgan. Lekin hali kutilgan natijaga erishilmoqda, deya olmaymiz. Zero, kitobxonlik madaniyati kundankunga pasayib borayotgani, bir paytlar o'zini eng ko'p o'qiydigan xalqlardan biri deb da'vo qilgan milliy adabiyotning ko'zgusi "Sharq yulduzi"dek jurnalning tiraji 1000 tadan oshmagani;

Matbaa jihatidan yuqori saviyada chop etilgan kitoblar do'konlarda chang bosganligi;

Yangi yaratilayotgan asarlarning shovqinsiz axborot ummoniga g'arq bo'layotgani uning qizg'in muhokama va bahs-munozaralarni uyg'otmasdan aks-sado berishiga imkon bermaydi. Savol tug'iladi: nima uchun? Axir qariyb yigirma yildan davomida Sho'ro davri adabiy ta'lim an'alaridan voz kechib, adabiyotni, eng avvalo, badiiy hodisa sifatida o'rgatishga urinmadikmi? Yuqorida tilga olingan sohadagi o'zgarishlarning asosi ham shu tushuncha emasmidi?! Biroq, bu bir narsani kuzatar ekanmiz, negadir fikrlar bir nuqtaga kelaveradi, garchi ular qayta-qayta muhokama qilinsa-da, faqat bitta xulosa bor, bu – maqsadni to'g'ri qo'ygan bo'lsak, unga erishishning eng yaxshi yo'lini tanlay olmadik.

Haqiqatan ham shundaymi? Haqiqatan ham maqsad to'g'ri qo'yilganmi? Balki shundaydir. Lekin adabiyotni badiiy hodisa sifatida o'rgatish nimani anglatishini haligacha o'zimiz aniqlab olganimiz yo'qdek. Ya'ni, bu borada umumiy qarashlarimiz yo'q, buni har kim o'zicha tushunayotganga o'xshaydi. Nazarimizda, ayni damda bir qutbdan ikkinchi qutbga sakrashga ikkilanib turibmiz: Sho'ro davri ta'lim tizimida adabiyotni qurol sifatida o'qitishdan tortib, san'at sifatida o'qitishgacha, oxir-oqibat, ochig'ini aytusak, risoladagidek birini yoki boshqasini qilishga qodir emasmiz. Adabiy ta'lim ta'limimizning asosiy bo'g'inlaridan biridir.

Albatta, maktab ta'limidan yiroq, adabiyot o'qitish muammolari bilan shug'ullanuvchi shaxsning bu da'vosi mutaxassislariga bema'ni tuyulishi mumkin. Natijada, biz bu gaplarni qisman yuqorida aytganlarimiz natijalariga va asosan filologiya fakultetiga o'qishga kirgan 1-kurs talabalarining tayyorgarlik darajasiga qarab aytmoqdamiz. Bir qarashda 1-kurs talabarlari adabiyot haqida keng ma'lumotlarga ega. Axir u fojining echkining qo'shig'i ekanini, Navoiy baytida falon san'at qo'llanganini, uning "Hazoyinul ma'oni"i falon baytdan iboratligini juda yaxshi biladi-ku! Lekin sho'r echki qo'shig'ining fojiaga qanday aloqasi borligini, fojining o'zi nima ekanligini bilmaydi. Navoiy qo'llagan san'atni boshqa bir baytda topa olmaydi, "Xazoyin-ul maoni"ni qo'lida ko'rmagan. Ya'ni universitetga endigina kirgan talabaning miyasi adabiyotga oid ma'lumotlarga to'la, lekin u adabiyotdan yiroq. To'g'ri, kirish testlari tufayli undan osongina qutulish mumkin. Biroq tan olish kerakki, bu yagona sabab emas, asosiy sabab ta'lim tizimida adabiyot qanday o'qitilayotganligidir.

Endi jahon adabiyoti tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, jahon adabiyoti xuddi bizning badiiy adabiyotimiz kabi talqin qilinsa-da, ulardagi g'oya va fikrlarni boshqa xalqlar vakillari yozadi. Bir tomondan, jahon adabiy san'atida shunday go'zalliklarni uchratish mumkinki, go'yo ularda barcha did, nafosat namoyon bo'ladi.

Jahon adabiyoti asarini o'qisangiz, adabiy mulohazalaringizdan unchalik foydalana olmaysiz, o'shanda dunyo va makon sizga g'alati, qiziq tuyuladi. Ularda estetik madaniyat go'zal namoyon bo'ladi. Ehtimol, adabiyotimizda estetikani ko'rmaysiz, lekin eng go'zal estetik madaniy g'oyalar eng saralangan adabiyotlarimizda o'z aksini topgan va ularni hamma ham tushuna olmaydi.

Endi yuqoridagi masalalar orqali badiiy ta'lim tizimida jahon adabiyotidan foydalanish haqida gapirish mumkin, aslida har bir san'atning o'ziga xos tizimi bor. Ammo biz ularni aralashtirganda, u yanada mukammal bo'ladi yoki unda yangi madaniyatlar uyg'onishi mumkin.

Jahon adabiyotini san'at tizimimizga talqin eta olsak, badiiy ta'lim tizimimizda bir qancha o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin, masalan, maktab o'quvchilari oliy o'quv yurtiga kirganda, ushbu fan bo'yicha o'zlashtirishni oshirish niyatida ko'pchilik o'rganishni xohlaydi. Biz ularga zerikarli san'at emas, balki qiziqarli va estetik didga boy yo'nalishlarni berishimiz kerak, shundagina bizning badiiy ta'lim tizimimiz yanada qiziqarli bo'lishi mumkin. Badiiy ta'lim tizimi zerikarli demoqchi emasmiz, lekin hozir ta'lim tizimimizda uchrayotgan muammolar barcha sohalarida keng namoyon bo'lmoqda.

Ta'lim tizimida ishlayotgan o'qituvchi va murabbiylarimizning ko'pchiligi pora evaziga ishga joylashadi, mehnat faoliyati davomida bolalarga to'g'ri saboq bera olmaydi, o'z ustida ishlamaydi yoki boshqa muammolar bor, buning natijasida bola o'sha o'qituvchi tomonidan o'rgatilgan mavzuni zerikarli yoki keraksiz deb topadi va zerikish darajasiga yetadi.

Boshqa estetikani bitta estetikaga ulash yoki aralashtirish orqali yanada qiziqarli tizim yaratilishi mumkin.

Axloqiy-estetik tarbiya usullariga kelsak, ta'lim tizimining barcha sohalarida bu omilga alohida e'tibor qaratishimiz kerak. Ta'lim qaysi yo'nalishda berilmasin, u berilishi kerak bo'lgan tizimlardan biridir. Jahon adabiyotini o'qiganimizda "G'urur va andisha" asari muallifi ham o'z ijodida insonning barcha estetika, axloqiy jihatlarini jamlagan. Ushbu asarni o'qish yoki uning filmi tomosha qilish natijasida inson juda ko'p foydali estetikani o'rganishi mumkin. Bu filmdagi aktyor va aktrisalarning shunday harakat qilishganki, ayol kishi tomosha qilsa, o'ziga bo'lgan ishonchi, iffati oshadi, erkak ko'rsa, o'ziga ishonchdan boshqa kim umid qilishi mumkin? Tomoshabin yoki o'quvchi tushunishi kerak, chunki u dunyoga o'z nuqtai nazaridan qaraydi. Bu ishlardan kelib chiqib, badiiy ta'lim tizimida jahon adabiyoti durdonalaridan unumli foydalansak, undagi estetikani umumlashtirib, tizimga tatbiq etsak, natijada ko'plab yutuqlarga erishishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, adabiy ta'lim ta'lim tizimining asosiy qismlaridandir, u yetuk darajada o'rgatilgan tizimda hech qachon kamchiliklar bo'lmaydi. Adabiyot shunday fanki, uni o'rgandan talaba, o'quvchi, pedagog va xatto yosh-u qarining estetik madaniyati oliy darajada yuksaladi. Yuqoridagilarga tayanib shuni eslatish lozimki, adabiy ta'lim insonga yuqori did va estetika hadya qiladi. Asl ta'lim tizimi o'zining axloqiy-estetik tizimini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak, aks holda uning barbod bo'lish ehtimoli mavjud. Chunki, axloqiy-estetik tarbiya badiiy ta'lim tizimidagi eng muhim omillardan biri bo'lib, bu ko'pchiligimizga ayon. Filologlar, adabiyotshunoslarning o'z ustida ishlasa, badiiy adabiyotning ta'lim tizimi yanada rivojlanadi, lekin bu yo'lda nafaqat o'qituvchilar, balki o'quvchilar ham sidqidildan mehnat qilishlari kerak bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Adabiy ta'lim haqida ayrim mulohazalar – Quronov <http://quronov.narod.ru/dmaq8.html>
2. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar. - T.2013-yil, 272-b.
3. Madumarov T, Kamolidinov M. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash:uslubiy qo'llanma.-T. Talqin", 2012- yil.144-b.
4. Muslimov.N. Usmonboyeva.M. Sayfurov.D. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. Toshkent - 2015.144-b.